

## O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH VA XALQARO HAMKORLIKNING O'RNI

**Rahmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy statistika” kafedrasi PhD, dotsenti

**Shavkatov Behruz Rustam o'g'li**

Bank ishi fakulteti 3-kurs talabasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: [shavkatovbehruz02@gmail.com](mailto:shavkatovbehruz02@gmail.com)

ORCID: 0009-0007-0780-5724

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, bozor iqtisodiyoti, intellektual mulk, innovatsiya siyosati, patent.

O'zbekiston Respublikasi ham innovatsiya faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos tajribalarga ega davlat hisoblanadi. Mazkur davlatda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki yillarida innovatsiya faolligining sezilarli darajada pasayib ketishi yuz berdi. Jumladan, ITTKillarini moliyalashtirish 2000 yilga kelib Qozog'iston, Rossiya, O'zbekiston davlatlarida 1990 yilda giga nisbatan o'rtacha 30-33 %ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich Armaniston, Gruziya, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldoviyada – 16-18 %ga to'g'ri keldi. [1]

Bu holat mazkur sohada faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar sonining qisqarishiga ham olib keldi. Jumladan, 1991-2002 yillardagi ko'rsatkich Uzbekistanda – 5686 dan 3542 gacha (38 %), Armanistonda – 4362 dan 2234 gacha (49 %), Belarusiyada – 6388 dan 4225 gacha (33 %), Qozog'istonda – 5045 dan 3631 gacha (28 %), Qirg'izistonda – 1319 dan 803 gacha (39 %), Rossiyada – 134 176 dan 102 419 gacha (24 %)ni tashkil etgan.[2]

Bu mamlakat innovatsiya faolligiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadidi. Shu sababdan hukumatimiz tomonidan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish va buning uchun qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, mustaqil mamlakatda innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 7 avgustdag'i “Fan va innovatsiya faoliyati rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni asos soldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 yanvarda “Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar grantlari bo'yicha ilmiy dasturlar va loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi 31-sonli Qurorining qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni hamda xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar bilan turli grantlar bo'yicha dasturlar va loyihalalar amalga oshirish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga keng yo'l ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdag'i “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-436- sonli Qurori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etildi va u bugungi kunda samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdag'i “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-3860-sonli Farmonining qabul qilinishi xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarishni mutazam modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan keng va samarali rag'batlantirish tizimini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldag'i "Innovatsion loyihibar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tafbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-916-tonli Qarori asosida Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihibar respublika yarmarkasi har yili o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 7 avgustdag'i "Ayrim fanlar chuqr o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 173-tonli Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PQ-805-tonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlar yili" davlat dasturi samarari ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamizda ayrim fanlar chuqr o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining ayrim fanlar chuqr o'rganiladigan quyidagi turlari tashkil etildi:

- ayrim fanlar (20 % fanlar) chuqr o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar;
- ayrim fanlar (40 % fanlar) chuqr o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar;
- futbol bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar.

Bular kelajakda innovatsiya sohasi rivojiga munosib hissa qo'shuvich yosh, malakali kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 may "Innovatsion loyihibarini ishlab chiqarishga tafbiq etishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 144-tonli Qarori mamlakatimizda innovatsion loyihibarini ishlab chiqarishga tafbiq etishga doir qo'shimcha rag'batlantirishlar tizimini shakllantirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 maydag'i "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-1536-tonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyun "O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 166-tonli Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etilib, Agentlik mamlakatda intellektual mulkning huquqiy muhofazasini ta'minlash va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlovchi va mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi va ular faoliyatini nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Braziliya Hukumati o'rtaida 2009 yil 28 may kuni Braziliya davlatida tuzilgan "Texnikaviy hamkorlik to'g'risida"gi Bitim 2011 yil 9 iyundan kuchga kirgan bo'lib, Mazkur Bitim quyidagi muhim ahamiyatga ega sohalarda texnikaviyhamkorlikni rag'batlantirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan:

- a) ta'lim;
- b) sog'liqni saqlash;
- v) tabiatni muhofaza qilish;
- g) kommunal xo'jaligi;
- d) suv resurslarini boshqarish;
- ye) fan va innovatsiya texnologiyalari;
- j) qishloq xo'jaligi;
- z) energetika;
- i) telekommunikatsiyalar;
- k) va boshqa tomonlar tarafidan belgilangan sohalar.

Bundan tashqari, O'zbekiston BMT bilan hamkorlik asosida 2010-2015 yillarga mo'ljallangan "Innovatsiya siyosati va texnologiyalar transferi sohasida qo'llab-quvvatlash" nomli loyihaning asosiy maqsadi O'zbekistonda innovaison infratuzilmani rivojlantirishni BMT Rivojlantirish Dasturi yordamida qo'llab-quvvatlashda iborat. Loyihaning umumiyligi qiymati 638,566 AQSh dollarini tashkil etadi.

O'zbekiston davlati innovatsiya sohasida xorij davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON, 2025

e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, 2008 yil 10 oktabrda Bishkek shahrida MDH davlatlari rahbarlari Kengashi yig'ilishida davlatlar rahbarlari tomonidan "2010 yil MDHda fan va innovatsiyalar yili" deb e'lon qilindi. MDH davlatlari rahbarlari Kengashi qarori bilan 2008 yil 14 noyabrda 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasi tasdiqlandi va uning tarkibida innovatsion hamkorlikka katta o'rinn ajratildi.

Shuningdek, 2011 yil 19 may kuni Minsk shahrida MDH davlatlari Hukumatlari tomonidan "MDH qatnashchilari – davlatlarining innovatsiya faoliyati uchun informatsiya" nomli Bitim tuzildi va ushbu Bitimning asosiy maqsadi MDH davlatlari innovatsiya faoliyatining informatsion inrfuzilmasini yaratish va u orqali innovatsiya faoliyati ishtirokchilarining tezkor va ishonchli informatsiyalarni olish orqali innovatsion integratsiya jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratildi.

O'z navbatida, respublikamizda ham MDH davlatlaridagi singari BMT Rivojlanish Dasturi (BMTRD) loyihasi asosida O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Konsepsiysi ishlab chiqilib, unga ko'ra, quyidagi umumiyl natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

## 2012-2020 yillarga iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning maqsadli yo'nalishlari[4]

Ko'rsatkichlar	2010 y. (hisobot)	Prognoz parametrlari	
		2012-2015 yy.	2016-2020 yy.
YalMga nisbatan ilmiy-texnik ishlarga xarajatlar ulushi, %	0,2	1,0	3,0
Yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi (YalM)	1,3	15,0	31,0
Innovatsion mahsulotlar ulushi (YalM jami)	2,9	15,0	22,0
Innovatsiya faoliyatiga xarajatlar ulushi (mahsulot hajmiga nisbatan, %)	0,4	2,8	5,0
Umumiyl eksportda innovatsiya mahsuloti	5,76	15,0	28,0
Tabiiy fanlar va injenerlik ta'limga bo'yicha	28,7	40,0	45,0
Patentlar soni, har yili xorijiy patent muassasalarida O'zbekiston rezidentlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziluvchi,	8***	1000	1300

Ushbu jadval ma'lumotlari istiqbolli davrlarda O'zbekistonda innovatsiya faoliyatining har tomonlama rivojlanishiga katta e'tibor qaratilganligi va ishlab chiqilgan Konsepsiya ijrosi natijasidan yuqori samaralarga erishish belgilanganligini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish va rivojlantirish borasida keng qamroqli va istiqbolli siyosatni amalga oshirib kelmoqda. Bunda, nafaqat, xorij davlatlari amaliyotini tahlil qilib orish bilangina cheklanmasdan, ular va xalqaro tashkilotlar bilan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatib va amalga oshirib kelmoqda. Bu yuqorida tahlil qilingan jadval ma'lumotlari tasdiqlaganidek, innovatsiya sohasi taraqqiyotida muhim omil bo'lmoqda.

### Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baynev V. F., Saevich V. V. Perexod k innovatsionnoy ekonomike v usloviyax mejgosudarstvennoy integratsii: tendensii, problemy, beloruskiy orxit: Monografiya. – Mn.: Pravo i ekonomika, 2007. – S. 81 (180 s.)
2. Baynev V. F., Saevich V. V. Perexod k innovatsionnoy ekonomike v usloviyax mejgosudarstvennoy integratsii: tendensii, problemy, beloruskiy orxit: Monografiya. – Mn.:

Pravo i ekonomika, 2007. – S. 20.

3. Indikatory nauki, texnologiy i innovatsionnoy deyatelnosti Respublikи Uzbekistan. Komitet po koordinatsii razvitiya nauki i texnologiy pri Kabinete Ministrov Respublikи Uzbekistan: Statisticheskiy sbornik. – T., 2011. – Str. 120-124.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Konsepsiysi asosida tuzildi ([www.inno.uz/downloads/publications/concept](http://www.inno.uz/downloads/publications/concept))

5. M.Raxmataliev “Innovative development at poultry enterprises in conditions of globalization of agricultural markets in Uzbekistan” V setevom, retsenziruemom, referiruemom i indeksiruemom журнале «Byulleten nauki i praktiki» v № 7 (iyul) 2018 г.